

## “ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O`QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH”

*Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani*

*26-umumiyl o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

***Boynazarova Matluba Olmosovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi, imkoniyatlari muhokama qilib, o'rganilgan. Bundan tashqari ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy metodlardan foydalanilib namunalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** til, kommunikativ funksiya, didaktik ko'nikma, kognitiv ko'nikma, amaliy ko'nikma, axloq, iroda, ta'lim, tarbiya.

Hozirgi vaqtida ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har birdarsning didaktikvazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagita'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlisha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars

jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lism beruvchi tomonidan ta'lism oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lism jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lism oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O'qitishning interfaol usullarini tanlashdata'lim maqsadi, ta'lism oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Ona tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning real o'quv imkoniyatlarini hisobga olish bilan chambarchas bog'langan. Bolalarning real o'quv imkoniyatini aniqlash, ularning o'zlashtirish darjasni, o'quv topshiriqlarini bajara olish qobiliyati, o'quv qiyinchiliklarini bartaraf eta olish imkoniyat kabilarini hisobga olish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, bolaning nimaga qodir ekanligini bilmay turib, uni o'qitib bo'lmaydi. Ona tili o'qituvchisi boshlang'ich sinf o'qituvchisi bilan hamkorlikda har bir bolaning real o'quv imkoniyatini aniqlash, shundan kelib chiqib, o'quv topshiriqlarining murakkablik darajasini belgilashi lozim. Maktablarda ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning muktab oldiga qo'ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy, siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan. Ona tilini o'rgatish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o'quv predmeti sifatida o'zbek tilining o'ziga xos xususiyati bo'lib, o'quvchini Shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan umumta'lim vazifalari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Darsda olib boriladigan ta'lism-tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, xayotda albatta yetuklikka

yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta’lim xarakteriga ega bo’lib, o’quvchilar bilimining mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi. Ta’lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar xaqida gap ketganda, ta’lim berish jarayonini ezgulik ko‘prigiga o’xshatamiz, bu ko’priidan o“quvchilarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o’tish ustozni, ya’ni o’qituvchilarni vazifasi deb bilamiz. Darslarning nazariy va amaliy qismida o’quvchilarning qiziqishini oshirish uchunpedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlarga bo’lingan xolda olib boriladi. Mashg’ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli maslaxatlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o’tilishiga yordam beradi. Ta’lim texnologiyasining konferentsiya usullaridan ko’proq foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usul parallel guruhlar o’rtasida o’tkaziladi. Guruhlar bir-biriga savol yo’llaydilar. Savol bergan o’quvchi ekranda namoyon bo’ladi vaparallel guruh o’quvchilariga savolini aytadi. Darsda o’tirgan o’quvchilar javob beradilar. To’g’ri javob uchun 5 ballni qo’lga kiritadilar. Semestr davomida guruh ballari hisoblab boriladi va semestr oxirida eng faol guruh aniqlanadi. Bu usul o’quvchilarni izlanishga, nutqini ravon bo’lishiga, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishga undaydi. Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o’qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o’rgatish, katta xajmdagi ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishslash muammosi yuzaga kelmoqda. Maktabdan litseyga o’qishga kelgan ko’p o’quvchilar mustaqilfikrlash va ishlash bo’yicha yetarlicha ko’nikmaga ega emas. Ayrimlari bilim olishgaqiziqishlari juda past. Qobiliyatli, izlanuvchan hamda ijodkorlikka ishtiyoqi bor farzandlarimizni o’zi qiziqqan axborot kommunikatsiya texnologiyalari yo“nalishida chuqurlashtirilgan saboq olishi, ularni kelajakda albatta yuksak malakali mutaxassislar bo’lib yetishshishlarida asosiy omil bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, darsning sifati, samaradorligi o`qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko’rishiiga bog’liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg,,or texnologiyalariga muvofiq holda loyihamanishi alohida o’rin tutadi. Ta’lim

soxasida pedagogik va axborot–kommunikatsiya texnologiyalardan, internet axborot ta’lim resurslaridan hamda konferentsiya usulidan foydalanish o“quvchilarining olayotgan bilimlarni yuqori saviyada bo’lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo’lib chiqishiga imkoniyat yaratadi.

***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. *Ta’lim sifatini baholash bo,,yichaxalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O,,quvchilarning savodxonligini baholash bo,,yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo,,llanma.-T.*
2. *Uzviylashtirilgan Davlat ta“lim standarti va o,,quv dasturi.T : 2010.*
3. *Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O,,qituvchi. 2010 y.*
4. *Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. O 'zbekistonda ilm-fan va ta 'lim masalalari: muammo va yechimlar.*